



CLOTHING CULTURE OF THE BABURID PERIOD: HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC PERSPECTIVES

M. S. Burieva

*Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Baburnama, Baburids, clothing, ethnography, headgear, ukpar, miniature, historical sources.

Received: 20.06.25

Accepted: 22.06.25

Published: 24.06.25

Abstract: This article analyzes the clothing culture of the Baburid period based on Zahiriddin Muhammad Babur's Baburnama and other historical written and visual sources from both historical and ethnographic perspectives. It examines the social, political, and aesthetic significance of garments, the system of court and everyday clothing, as well as the symbolic and functional meanings of headgear and decorative elements such as ukpar.

BOBURIYLAR DAVRI KIYIM-KECHAKLARI HAQIDA TARIXIY-ETNOGRAFIK QARASHLAR

M. S. Bo'riyeva

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Boburnoma, Boburiylar, kiyim-kechak, etnografiya, bosh kiyim, ukpar, miniatyura, tarixiy manbalar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yozilgan "Boburnoma" asari va boshqa tarixiy yozma hamda tasviriy manbalar asosida Boburiylar davridagi kiyim-kechak madaniyatining etnografik va tarixiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda liboslarning ijtimoiy, siyosiy va estetik ahamiyati, saroy liboslari va kundalik kiyimlar tizimi, shuningdek, bosh kiyimlar, ukpar bezaklarining ramziy va funksional ma'nosi ochib beriladi.

ОДЕЖДА ЭПОХИ БАБУРИДОВ ИСТОРИКО-ЭТНОГРАФИЧЕСКИЙ ВЗГЛЯД

М. С. Буриева*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Бабур-наме, Бабуриды, одежда, этнография, головной убор, укпар, миниатюра, исторические источники.**Аннотация:** В данной статье проводится анализ культуры одежды эпохи Бабуридов на основе произведения Захириддина Мухаммада Бабура «Бабур-наме», а также других исторических письменных и изобразительных источников. Рассматриваются социальное, политическое и эстетическое значение одежды, система придворных и повседневных нарядов, а также символическое и функциональное значение головных уборов и украшений, таких как укпар.

Kirish. Kiyim-kechak har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy tuzilmasi va madaniy qarashlarini aks ettiruvchi muhim unsurlardan biridir. O‘zbek xalqi kiyinish an’analari ham uzoq tarixiy davrlar davomida shakllanib, turli bosqichlarda ijtimoiy maqom va milliy tafakkur bilan uyg‘unlashgan. Ayniqsa, Boburiylar davrida bu an’analar Hindiston madaniy muhitining ta’siri bilan boyib, o‘ziga xos libos madaniyatini shakllantirgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari bu davr kiyim-kechaklari, urf-odat va saroy hayotiga doir ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan. Miniatyura san’ati va yozma manbalar orqali Boburiylar davridagi kiyim-kechaklarning ijtimoiy vazifalari, ularning ramziy mazmuni o‘rganiladi.

Mazkur maqolada “Boburnoma” va boshqa tarixiy manbalar asosida Boburiylar davri kiyim-kechak madaniyatiga etnografik yondashuvda tahlil beriladi.

Adabiyotlar tahlili. Boburiylar davridagi kiyim-kechak madaniyati haqida olib borilgan tadqiqotlar ushbu davr liboslarining tarixiy va etnografik funksiyalarini ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi. Mirzaeva Sh. milliy kiyimlarning shakllanish jarayonini tahlil qilgan bo‘lsa[1], Ergasheva M.R. ularning kompozitsion xususiyatlarini o‘rganadi[5]. Liboslar tarixi va bichimi masalalari Rahmatullayeva D., Xodjayeva U. va Ataxanova F.[6], shuningdek Xodjayeva U.M.[7] asarlarida yoritilgan. Boburiylar kiyimlarining ramziy va amaliy mazmuni Olimjonov D. tomonidan ochib berilgan[3], ularning tasviriy talqini esa “Oyina” jurnalida tahlil qilingan[2]. Usanova M. esa “Boburnoma” asosida hind kiyim madaniyatining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi[8]. Ushbu manbalar asosida Boburiylar davri liboslari murakkab madaniy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada turli tarixiy manbalar asosida Boburiylar davridagi kiyim-kechak madaniyati, birinchidan, manbashunoslik tahlili orqali asardagi liboslarga oid tasvirlar va ularning mazmuni o'rganildi. Ikkinchidan, etnografik-taqqoslash usuli yordamida Boburiylar kiyimlari boshqa davrlardagi liboslar bilan solishtirilib, o'ziga xos xususiyatlar aniqlab berildi.

Muhokama va natija. O'zbek xalqining qadimgi kiyim-kechak madaniyati haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda arxeologik qazilmalar natijasida aniqlangan devoriy suratlar, amaliy san'at namunalari va o'rta asr kitoblaridagi miniatyuralar muhim manba sifatida xizmat qiladi. Xususan, o'rta asrlarga oid miniatyuralar o'zbek kiyimlarining an'anaviy shakli va uslubi allaqachon shakllanib bo'lganligini, shuningdek, bu kiyimlar ko'p asrlar davomida saqlanib kelganini tasdiqlaydi. Kiyim-kechakdagi muhim o'zgarishlar esa asosan XX asrning boshlarida kuzatila boshlagan bo'lib, bu jarayon ko'proq shaharlik aholining kiyinish madaniyatida yaqqol namoyon bo'lgan[1].

O'rta asr Sharq miniatyura san'ati va yozma manbalari, xususan adabiy asarlar, o'sha davr kiyim-kechak madaniyatini o'rganishda asosiy manbalar sirasiga kiradi. Akademik G. Pugachenkova miniatyuralarda tasvirlangan liboslar asosida ularning tarixiy davrini va tegishli maktabini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lgan. Bu yondashuv orqali miniatyura san'atining uslubiy taraqqiyoti ham aniqlangan. Sharq miniatyura maktablari tarixan to'rtta asosiy bosqichga ajratilib o'rganiladi: temuriylar davridagi Hirot va Samarqand maktablari, safaviylar davridagi Tabriz va Sheroz maktablari, shayboniylar davrining Buxoro maktabi va boburiylar davridagi Hindiston maktablari[2]. Bu maktablar o'rtasida kuzatilgan badiiy yondashuv farqlari kiyim-kechak tasvirlarida ham aks etadi. Ayniqsa, Boburiylar davri Hindiston maktabi o'ziga xos madaniy uyg'unlik mahsuli bo'lib, unda Markaziy Osiyo va Hind libos estetikasi birgalikda mujassam topgan. Bu holat miniatyuralarda hukmdorlar, harbiylar va ayollarning liboslari orqali yaqqol namoyon bo'ladi.

Boburiylar davri miniatyura san'ati ushbu ilgari shakllangan maktablarning badiiy an'analarini chuqur o'zlashtirib, hind madaniy muhitida o'ziga xos yangi obrazlarni yaratishga erishgan. Ayniqsa, "Boburnoma" asariga ishlangan miniatyuralarda bu hol aniq ko'zga tashlanadi. Mazkur tasvirlarda qahramonlarning tashqi ko'rinishi, kiyimi, bosh kiyimi — xususan, hindcha salla kabi detallar orqali Hindiston madaniyatining ta'siri yaqqol seziladi. Bular temuriy va safaviy miniatyuralardagi qahramonlarga qaraganda butunlay o'ziga xos ifodaga ega. Bu miniatyuralar "Boburnoma"ning nafaqat matni, balki tarixiy kontekstini tasviriy jihatdan ham boyitib, Bobur davri real hayoti va uning jamiyatidagi kiyim-kechak an'analarini yoritishda muhim manbadir[2]. Shu tariqa, Boburiylar maktabi miniatyuralari orqali nafaqat badiiy yondashuvning o'zgarishi, balki madaniy integratsiyaning vizual shakli ham namoyon bo'ladi. Shuningdek, "Boburnoma"

miniatyuralari orqali Boburiylar davrida kiyim-kechak madaniyatining rasmiy va norasmiy ko'rinishlari ajratib ko'rsatish imkoniyati yuzaga keladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida kiyim-kechakni nafaqat tashqi ko'rinish, balki uning ijtimoiy va funksional vazifalari orqali ham tasvirlagan. Ushbu liboslarni hukmdorlar, harbiylar va marosimlar uchun mo'ljallangan toifalarga ajratish mumkin. Boburiylar davrida tantanali kiyimlar jamiyatda tabaqalanish belgisini ifodalagan, san'at vositasi hamda siyosiy g'oyaning timsoli sifatida namoyon bo'lgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu liboslar ramziy ma'noga ega bo'lib, davrning siyosiy va madaniy muhitini aks ettirgan. "Boburnoma"da esa 15–16-asrlarda turkiy, forsiy va hindiy madaniyatlar kesishgan hududlardagi kiyim va bezaklar tizimi aniq va batafsil yoritilgan[3]. Liboslar hukmdorlar, harbiylar va tantanali marosimlar uchun maxsus toifalarga bo'linib, ijtimoiy tabaqalanish va siyosiy ramzlar tizimini aks ettirgan.

Boburning hayoti davrida yaratilgan asl portreti mavjudligi hozircha aniqlanmagan. Uning siymosi haqida tasavvur beruvchi mashhur miniatyura esa XVII asr boshlarida, Jahongir hukmronligi davri badiiy an'alariga mos tarzda yaratilgan bo'lib, hozirda London kutubxonasida saqlanadi. Unda Bobur bog'da, ariq bo'yida kursida o'tirib, mutolaaga berilgan holatda tasvirlangan. Mazkur asarda Bobur an'anaviy uslubda – qizil yaktak, sarg'ish kamzul, boshida yo'l-yo'l salla va hukmronlik ramzi bo'lgan ukpar bilan aks ettirilgan. Libosdagi detallar va tabiiy holatlar obrazga samimiylik va realizm baxsh etadi[4]. Bobur siymosini aks ettirgan XVII asr miniatyurasi nafaqat tarixiy obrazni tasvirlashga urinish, balki Boburiylar saroyida vizual merosni ideallashtirishga bo'lgan badiiy intilish ifodasidir.

O'zbek milliy liboslari tarixida ayollar orasida qo'l va barmoqlarga taqiladigan zargarlik buyumlari — bilakuzuk va uzuklar, shuningdek, kiyimga qadaladigan ukpar, jig'a kabi bezaklar estetik hamda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim aksessuarlardan hisoblangan[5].

Ukpar — bosh kiyimlarga, ayniqsa salla yoki to'ppilarga qadaladigan bezak bo'lib, u hukmdorlar va zodagonlar libosining ajralmas qismi hisoblangan. Odatda, ukpar qush patidan (masalan, qarqara) tayyorlanib, oltin yoki kumush asosga mahkamlangan. U yuksak maqom, hokimiyat va jasorat timsoli sifatida libosga tantanavor ko'rinish bergan.

Miloddan avvalgi uch ming yillikka oid arxeologik topilmalar zamonaviy hind kiyimlarining ildizlari qadimiy erkak va ayollar liboslariga borib taqalishini ko'rsatadi. O'sha davrda kiyimlar asosan tikilmagan matolarni badan atrofida o'rash orqali hosil qilingan. Masalan, sari, dho'tiy, orxniiy va dupatta kabi bel va yelka kiyimlari mavjud bo'lgan. Yuqori tabaqa vakillari — shohlar, amaldorlar va harbiylar yopinchiqdan ham ustki kiyim sifatida foydalangan. Hind liboslarida ijtimoiy tabaqalanish aniq ko'zga tashlangan[6]. Aynan mana shu qadimiy kiyinish uslublari keyinchalik Boburiylar davrida shakllangan saroy kiyim madaniyatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan.

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ukpar va jig‘a kabi bezaklar nafaqat aksessuar sifatida, balki ijtimoiy maqomni ifodalovchi belgilar sifatida ham talqin qilinmoqda. Xususan, ukparning qush patidan tayyorlanib, zargarlik bezaklari bilan boyitilishi uni nafaqat libos detali, balki siyosiy hokimiyat va jasorat ramzi sifatida ko‘rishga asos bo‘ladi.

Shayboniylar davrida paranji chopon olimlar, davlat amaldorlari va ruhoniylar tomonidan kiyilgan muhim ustki kiyimlardan biri bo‘lgan. Bu an‘ana Temuriylar zamonida Movarounnahrda, keyinchalik esa Boburiylar davrida Hindistonda ham kuzatilgan. “Paranji” atamasi dastlab erkaklar va ayollar kiyimiga nisbatan qo‘llanilgan. Feodalizm davrida u yangicha estetik talablarga mos holda rivojlangan bo‘lsa-da, o‘zining asosiy shaklini saqlab qolgan. Ayollar paranjisi esa qadimiy faranji – bayramona yopinchiq libosidan kelib chiqqan[7].

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida hindlarning kiyim-kechaklariga ijobiy baho bergan bo‘lib, ularning liboslari iqlim sharoitiga mos, bezakdor va rang-barang ekanligini ta’kidlaydi. Xususan, ayollar liboslarining nozikligi va erkaklarning bosh kiyimlari unda katta taassurot qoldirgan[8]. Demak, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, paranji dastlab faqat ayollar emas, balki erkaklar – ayniqsa, ilm ahli va mansabdor shaxslar tomonidan ham ustki kiyim sifatida kiyilgan. Bu holat Temuriylar davridan boshlab Shayboniylar va Boburiylar zamonlarida ham davom etgan. “Boburnoma”da esa Bobur hind kiyimlarini nafaqat chiroyli, balki ob-havo va hayot tarzi bilan bog‘liq tarzda baholagan.

Xulosa va takliflar. Boburiylar davridagi kiyim-kechak madaniyati — bu nafaqat saroy hayoti va zodagonlar libosi, balki o‘sha davr jamiyatining siyosiy, ijtimoiy va estetik qarashlarini aks ettiruvchi muhim madaniy hodisadir. “Boburnoma” va boshqa tarixiy-tasviriy manbalar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Boburiylar kiyimlari turli madaniyatlar — turkiy, forsiy va hindiy an‘analari uyg‘unligida shakllangan. Liboslar ijtimoiy tabaqalanish belgisi, siyosiy hokimiyat timsoli va san‘at ifodasi sifatida jamiyat hayotida alohida o‘rin egallagan.

Miniatyura san‘ati orqali bu kiyimlar faqat tashqi qiyofa emas, balki ularning mazmun-mohiyati, ramziy funksiyasi va estetik ko‘rinishlari ham tasviriy jihatdan boyitilgan.

Maqolada keltirilgan dalillar shuni isbotlaydiki, Boburiylar davridagi kiyim-kechaklar — bu oddiy libos emas, balki murakkab madaniy tizimning ajralmas qismi sifatida tarixiy jarayonlarda faol rol o‘ynagan.

Takliflar:

1. Milliy muzeylarda Boburiylar kiyim-kechaklarining namunalarini 3D vizualizatsiya asosida jonlantirish.
2. Talabalar va yosh tadqiqotchilar uchun “Tarixiy liboslar etnografiyasi” bo‘yicha maxsus ilmiy to‘garaklar tashkil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzaeva Sh. O'zbek milliy etno-liboslari tarixiga bir nazar // Oriental Art and Culture ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 3, №1. – B. 571.
2. Miniatyura san'atida liboslar // Oyina elektron jurnali. – 2021. – 26-sentabr. – URL: <https://oyina.uz/uz/article/144>
3. Olimjonov D. Bobur va boburiylar davri kiyimlarining amaliy va vazifaviy xususiyatlari // Muarrix ilmiy jurnali. – 2025. – №1. – B. 2, 7.
4. Bobur sirg'a taqqanmi? // Darakchi.uz. – 2024. – 13-fevral. – URL: <https://darakchi.uz/oz/181101>
5. Ergasheva M.R. Kostyum kompozitsiyasi va tarixi: darslik. – Toshkent: 2020. – 110 b.
6. Rahmatullayeva D., Xodjayeva U., Ataxanova F. Libos tarixi. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 174–176 b.
7. Xodjayeva U.M. Kostyum va uning bichimi tarixi. – Toshkent: 2019. – B. 211–212.
8. Usanova M. “Boburnoma”da Hind jamiyati: tarixiy-ijtimoiy tahlil // Ilm-fan va innovatsiya: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – URL: <https://in-academy.uz/index.php/si>. – B. 51.